


O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi – tarixiy taraqqiyotning eng yangi davri

Fanlar akademiyasi Tarix institutida O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan "O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi - tarixiy taraqqiyotning eng yangi davri: natijalar, muammolar va istiqbollar" mavzusidagi umumilliy ilmiy yig'in o'tkazildi. Bugungi pandemiya sharoitida masofadan tashkil etilgan umumilliy ilmiy yig'inda respublikaning yetuk olimlari, jamoat arboblari va yosh tadqiqotchilar qatnashdilar.



Umumilliy yig'inida mustaqillik yillarida tarix fani muhim o'zgarishlarni boshidan kechirgani, avvalo, sovet mafkurasidan voz kechilib, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan yangi metodologik yondoshuvlar yuzaga kelgani, o'rganilmagan mavzular tadqiqot ob'ektiga aylangani, ko'plab tarixiy voqea va xodisalar yangicha talqin etila boshlangani va bu davrni holis o'rganish vaqti kelganini alohida ta'kidlab o'tildi. Anjuman ilmiy bahs-munozaralarga boy tarzda o'tib, ma'ruzachilar qatnashchilar tomonidan berilgan savollarga aniq dalillar asosida javob qaytardilar. Ushbu anjuman O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jabhalarida o'rganilmagan jihatlari ko'p ekani, ijtimoiy fanlar, shu jumladan tarixchilar oldida eng yangi davr tarixini yangicha yondashuvlar asosida o'rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha muhim ilmiy vazifalar turganini yana bir bor ko'rsatdi. Ayniqsa, tadbirda ishtirok etgan olimlar tomonidan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish bo'yicha yakdil fikrlar, takliflar o'rtaga tashlangani ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga, milliy tariximizni keng ko'lamda o'rganishga xizmat qiladi.